ULUG‘BEK HAMDAM NASRIDA RUHIY KECHINMALAR POETIKASINI PSIXOANALITIK VA FENOMENOLOGIK TALQIN QILISH USULLARI

Raxmonova Malika Ilhom qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
Malika918@gmail.com
+998957103767

Annotatsiya: *Ulug‘bek Hamdam adabiy an’analarga ijodiy munosabatda bo‘ldi. Ulardagi diqqatga loyiq qirralarni bugunning qarashlari, o‘zining badiiy-estetik meni, iste’dodining betakror yolqini bilan nurlantira oldi. Ulug‘bek Hamdam – atoqli o‘zbek yozuvchisi, shoiri va dramaturgi. Uning teranligi va o‘ziga xosligi bilan tanilgan ijodi o‘zbek adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Hamdam o‘z asarlarida murakkab ijtimoiy-falsafiy mavzularga to‘xtalib, ko‘pincha metafora va timsollardan o‘rinli foydalanadi. Nazarimizda, milliy mustaqillik yillarida ko‘plab o‘quvchilarning e’tirof va e’tiboriga loyiq bo‘lgan asarlar yoza oldi.*

Kalit so‘zlar: *Yozuvchi, asar, yutuq, tanqid, adabiy asar, tadqiqotlar, tafakkur, tillar, roman, she’riyat.*

Abstract: *Ulugbek Hamdam had a creative attitude to literary traditions. He was able to illuminate the aspects of them that deserve attention with his modern views, his artistic and aesthetic self, and the unique brilliance of his talent. Ulugbek Hamdam is a prominent Uzbek writer, poet, and playwright. His work, known for its depth and originality, had a great influence on Uzbek literature. Hamdam touches on complex socio-philosophical topics in his works, often using metaphors and symbols appropriately. In our opinion, in the*

years of national independence, he was able to write works that were worthy of recognition and trust of many readers.

Keywords: *Writer, work, achievement, criticism, literary work, research, thought, languages, novel, poetry.*

Аннотация: *Улугбек Хамдам отличался творческим подходом к литературным традициям. Он смог осветить те их аспекты, заслуживающие внимания, благодаря своему современному взгляду, художественному и эстетическому «я» и уникальному блеску своего таланта. Улугбек Хамдам — выдающийся узбекский писатель, поэт и драматург. Его творчество, известное своей глубиной и оригинальностью, оказало большое влияние на узбекскую литературу. В своих произведениях Хамдам затрагивает сложные социально-философские темы, часто уместно используя метафоры и символы. На наш взгляд, в годы национальной независимости он смог создать произведения, достойные признания и доверия многих читателей.*

Ключевые слова: *писатель, творчество, достижения, критика, литературное творчество, исследования, мысль, языки, роман, поэзия.*

Kirish

Ma’lumki, bugungi kun adabiy jarayonida hikoya janrining ham faolligi, sermahsulligi, serqirraligi, rang-barangligi adabiyotshunoslik fani oldiga muhim vazifalarni qo‘ymoqda. So‘nggi paytlarda adabiy tanqidda hikoyachilikda yuz berayotgan yangiliklar, ijobiy o‘zgarishlar, yutuq va nuqsonlarni tez anglab, tahlil etishga astoydil kirishildi. Janrga xos turli muammolar bag‘ishlangan alohida yirik tadqiqotlardan tashqari birgina hikoyani chuqur tahlil etish orqali janrning yangi imkoniyatlari va asosiy xususiyatlarini ochib beruvchi o‘nlab maxsus maqolalar ham paydo bo‘ldiki,

bu adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning munosib yutug‘idir. Ayni damda bunday tadqiqotlarning ko‘pi Ulug‘bek Hamdam atrofida kechayotganligi ham bejiz emas.

Bugungi kunda o`zbek adabiyoti vakillari orasida Ulug`bek Hamdam o`zining chuqur sermazmun roman va hikoyalari bilan xalq og`ziga tushgan yozuvchilardan biridir. Uning “Muvozanat”, ”Isyon va Itoat”, “Sabo va Samandar” kabi romanlari, “Uzoqdagi Dilnura” qissa va hikoyalar to`plami XX asr o`zbek adabiyotida o`z o`rniga ega. Shuningdek, “Tangriga eltuvchi isyon”, “Atirgul” va “Seni kutdim” she’riy to`plamlari, “Badiiy tafakkur tadriji”, “Yangilanish ehtiyoji”, “Yangi o`zbek she’riyati” nomli monografiyalari ham nashr etilgan. Ulug`bek Hamdam zamonaviy o`zbek adiblari orasida asarlari boshqa tillarga ko`p o`girilayotgan va O`zbekistondan tashqarida e’tirof etilayotgan oz sonli ijodkorlardan biridir. Uning “Isyon va itoat” romani, “Yolg`izlik” qissasi, o`nga yaqin hikoyasi va she’rlari ruschaga tarjima qilindi. Ijodkorning “Tosh” degan hikoyasi va bir qancha she’rlari ingliz tiliga o`girildi. “Muvozanat” romani va “Tosh” hikoyasi Amerikada e’tirof etildi.

Muhokama va natijalar

Ulug‘bek Hamdam – atoqli o‘zbek yozuvchisi, shoiri va dramaturgi. Uning teranligi va o‘ziga xosligi bilan tanilgan ijodi o‘zbek adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Hamdam o‘z asarlarida murakkab ijtimoiy-falsafiy mavzularga to‘xtalib, ko‘pincha metafora va timsollardan o‘rinli foydalanadi. Nazarimizda, milliy mustaqillik yillarida ko‘plab o‘quvchilarning e’tirof va e’tiboriga loyiq bo‘lgan asarlardan biri taniqli yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanidir. Ushbu asar ilk bor “Jahon adabiyoti” jurnalida e’lon qilinganidan buyon o‘tgan yigirma yildan ortiq vaqt ichida qayta-qayta bosilgan, ko‘p o‘qilgan va bahsmunozaralarga sabab bo‘lgan. Bunga mazkur romanning dolzarb va qiziqarli g‘oyaviy-badiiy mazmunga ega ekanigina emas, balki

Istiqlol davri o‘zbek romanchiligiga xos uslubiy izlanishlarning yetakchi tamoyillarini o‘zida aks ettirganligi ham sabab bo‘ldi.

Ulug‘bek Hamdam zamonaviy o‘zbek adiblari orasida asarlari boshqa tillarga ko‘p tarjima qilinayotgan va xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilayotgan oz sonli ijodkorlardan biridir. Uning “Isyon va itoat” romani, “Yolg‘izlik” qissasi, o‘nga yaqin hikoyasi va she‘rlari rus tiliga tarjima qilindi. Ijodkorning “Tosh” degan hikoyasi va bir qancha she‘rlari hatto ingliz tiliga o‘girildi. “Muvozanat” romani va “Tosh” hikoyasi Amerikada e‘tirof etildi. Ulug‘bek Hamdamning mahorati tufayli Mavlono Rumiyning “Ichindagi ichindadir” (2001) va professor U.Turonning “Turkiy xalqlar mafkurasi tarixi” nomli asarlari turk tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ulug‘bek Hamdam asarlari bugungi kunda allaqachon o‘z o‘quvchilarini topgan. Uning asarlari o‘quvchini tanlaydigan asarlardir. Chunki uning ijodidan bahramand bo‘lmoqchi bo‘lgan o‘quvchi ma‘lum intellektual tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak.

ganini beixtiyor e’tirof etishlari shundan.” Ulug`bek Hamdamning “Muvozanat” romanida ko`pchilikning ongu-qalbidan kechib o`tgan yoki kechib turgan holat tasvirlangan. “Muvozanat”da yaqin o`tmishimiz, odatlanilgan turmush-tarzidagi o`zgarishlar ruhiyatimizda keskin evrilishlarni keltirib chiqargan davrdagi muvozanatsizlik holati qalamga olingan. Asar mavzu jihatidan g`oyat dolzarb muammoga bag‘ishlangan. “Muvozanat” romanida tanlangan mavzu, asar g`oyasi roman nomidan seziladi. Romanda yangi davr ostonasida turgan insonning qalbidagi mezonni ijtimoiy tuzum, davr va makon o`zgarishlari oqibatida ma’lum darajada buzilishi, saqlab turilgan muvozanatni qalqib ketishi keng ko’lamda yoritiladi. Darhaqiqat, romanda avvalo, mavzu yangi. Muallif badiiy ijodda muvozanat tushunchasiga yangicha yondasha bilgan. “Demak, gap bu yerda realizmda yoki modernizmda ham emas. Gap san’atkorda, uning tafakkurida va mahoratida. Adabiy asar esa

chinakam asar namunasi bo`lmog`i uchun, realizmga mansub bo`ladimi, romantizm uslubida yozilgan bo`ladimi, yoki qandaydir boshqa modernistik uslubga amal qiladimi, baribir, yana takror aytib o`tmoq joiz, uning markazida inson turmog`i kerak, kitobxon insonning taqdiri, tabiati, hayoti haqida muayyan axborot olish bilan birga bu asardan estetik zavq ham ola bilsin.” (2) Bir qarashda oddiydek tuyulgan muvozanat tushunchasi asar davomida nihoyatda katta va keng ko`lamli mohiyat kasb etadi. U turmushning, hayotning, inson ma’naviyatining har bir jabhasida o`z bo‘yini ko`rsatadi. Asarda yozuvchi istiqlolga erishganimizdan keyingi davrni, muhitni yoritib berishda ayni tushunchani asosiy mezon sifatida asarning bosh g`oyasi, mavzusi bilan bog‘laydi. Asar kompozitsiyasi va syujeti ham ana shu asosda tuziladi. Ulug‘bek Hamdam ijodida milliylikdan umuminsoniylik sari o‘sib chiqqan asarlar borki, ular chet el adabiyotida ham munosib baholandi. Yozuvchi adabiy an’analarning munosib vorisi sifatida davom ettirish barobarida shaklan ham mazmunan yangilanishlar yo`lida urinishlarni amalga oshirdiki, adabiy tanqidchilikning munosabatiga tayangan holda ularni muvaffaqiyatli chiqdi, deya ayta olamiz. Ulug`bek Hamdam “Muvozanat” romani bilan XX asr o‘zbek adabiyotida an’anaviylik bilan ham yangi badiiy-estetik tafakkurni ifodalash mumkinligini to`la isbotladi. Ayniqsa, asardagi Amir obrazi o‘zbek adabiyotiga butunlay yangi timsol bo`lib kirib keldi. Uning vositasida insonni kashf etishda adabiyotning ochilmagan qirralari, muammolari borligi ayon bo`ldi. Asardan shunday xulosaga kelish mumkinki, butun olam muvozanat qonuni asosida turgan bo`lsa, jamiyat ham, uning asosini tashkil qilgan insonlar ham ayni muvozanat tufayli barqarordir. Muvozanat buzilgan zahoti hayotda, demak, uning a’zolari orasida har xil kutilmagan o‘zgarishlar, hatto izdan chiqishlar boshlanadi. Adibning nafaqat romanlari, balki qissa va hikoyalarini o‘qiganimizda ham asar qahramonlari va

davr ruhiyatini haqqoniy qirralarda tasvirlab, yozuvchilik mahoratini to`liq namoyon etganligini ko`ramiz. Ulug`bek Hamdam ijodini chuqur ilmiy tadqiq etish adabiyotshunoslik ilmi uchun yangi ma'lumotlar beradi. Demak, bu boradagi izlanishlarni ko`paytirish foydadan holi emas.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish joizki, yozuvchi Ulug'bek Hamdam ijodida mavzular ko'lami u qadar keng bo'lmasa-da, yangi, dolzarb muammolarning ko'tarib chiqilishi va chuqur falsafiy mushohada asosida talqin etilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ulug'bek Hamdam o'zbek romannavislik va hikoyanavisligi an'analarini davom ettirgani holda, shakl masalasining kengligi, obrazlar tanlovi, modernistik talqinlarga murojaat jihatidan yangilanishlar yaratdi. Ayniqsa, yozuvchining tush-hikoyalari bayon uslubi, kutilmagan yechim bilan yakun topishi, katarsis hodisasining millat va yosh jihatidan qat'iy nazar chuqur anglanishi kabilar bilan novatorlik kasb etadi. Mazkur hikoyalarda mifologik, diniy, falsafiy qarashlar uyg'unlashib ketgan. Xullas, Ulug'bek Hamdamning eng mashhur asarlari qatorida O'zbekistonda ham, xorijda ham e'tirof etilgan she'riy, roman va pyesalari bor. Uning asarlarida davr ruhi aks ettiriladi va insoniy munosabatlar chuqur tahlilga tortiladi.

REFERENCES

1. Ёқубов, Исломжон. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Монография.– Тошкент: "Nurafshon business", 2021. – 336 б.
2. Холбеков М. Бадиий адабиётда модернизм тавсифи//Ёшлик. 2011. 3-сон. Улуғбек Ҳамдам. Йўл. Роман// Ёшлик, 2015- йил, 6-7-сон.
3. Yo`ldosh Qozoqboy. Yoniq so`z. T.: Yangi asr avlodi, 2006.

4. Sharafiddinov Ozod. Ijodni anglash baxti.T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.

5. Quronov Dilmurod. Adabiy jarayonda Mom sindromi. www.ziyouz.uz

6. Hamdam Ulug`bek. Muvozanat.T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.

7. Qo`chqorova Marhabo. “Muvozanat romanida shartli ramzlar” maqola.